

## MINTAQAVIY TURIZMDA INNOVATSION VA INSTITUTSIONAL MEXANIZMLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING KOMPLEKS MODELINING AHAMIYATI

**Toshev Nurbek Janon o‘g‘li**

Qarshi davlat universiteti

“Turizm va marketing” kafedrası

i.f.f.d. PhD.

ORCID: 0009-0003-5921-5196

E-mail: [toshevnurbek497@gmail.com](mailto:toshevnurbek497@gmail.com)

### Annotatsiya

Mazkur maqolada mintaqaviy turizmni rivojlantirishda innovatsion va institutsional mexanizmlar samaradorligini baholashning kompleks modeli taklif etilgan. Model orqali turizm infratuzilmasi, raqamli texnologiyalar, institutsional hamkorlik va boshqaruv omillarining hududiy turizm rivojlanishiga ta’siri tizimli ravishda baholanadi. Tadqiqot natijalari mintaqaviy turizmni samarali boshqarish, investitsion jozibadorlikni oshirish hamda barqaror rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** mintaqaviy turizm, innovatsion rivojlanish, institutsional mexanizmlar, kompleks baholash modeli, turizm samaradorligi, raqamli transformatsiya, turizm infratuzilmasi, barqaror rivojlanish.

### Аннотация

В статье предложена комплексная модель оценки эффективности инновационных и институциональных механизмов в развитии регионального туризма. Модель позволяет системно оценивать влияние туристической инфраструктуры, цифровых технологий, институционального сотрудничества и управленческих факторов на развитие туризма в регионе. Результаты исследования направлены на повышение эффективности управления региональным туризмом, инвестиционной привлекательности и обеспечение устойчивого развития.

**Ключевые слова:** региональный туризм, инновационное развитие, институциональные механизмы, комплексная модель оценки, эффективность туризма, цифровая трансформация, туристическая инфраструктура, устойчивое развитие.

### Abstract

This article proposes a comprehensive model for assessing the effectiveness of innovative and institutional mechanisms in regional tourism development. The model provides a systematic evaluation of the impact of tourism infrastructure, digital technologies, institutional cooperation, and governance factors on regional tourism growth. The research findings contribute to improving tourism management efficiency, increasing investment attractiveness, and ensuring sustainable development.

**Keywords:** regional tourism, innovative development, institutional mechanisms, comprehensive assessment model, tourism efficiency, digital transformation, tourism infrastructure, sustainable development.

## KIRISH

Jahon iqtisodiyotida turizm sohasi hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtiruvchi, yangi ish o‘rinlarini yaratuvchi va investitsiyalarni jalb etuvchi muhim tarmoqlardan biri hisoblanadi. Global raqobatning kuchayishi, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi hamda turistik xizmatlar bozorida o‘zgarishlar mintaqaviy turizmni boshqarishda innovatsion va institutsional yondashuvlarni keng joriy etishni taqozo etmoqda. Shu bois turizmni rivojlantirishda qo‘llanilayotgan mexanizmlarning samaradorligini ilmiy asosda baholash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonda turizm sohasini modernizatsiya qilish, hududlarning turistik salohiyatidan samarali foydalanish, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq mavjud baholash usullarida innovatsion va institutsional omillarning o‘zaro bog‘liqligi hamda ularning mintaqaviy turizm rivojlanishiga ta‘sirini kompleks baholash masalalari yetarli darajada yoritilmagan.

Mazkur sharoitda mintaqaviy turizmni innovatsion va institutsional mexanizmlar samaradorligini baholashning kompleks modelini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish alohida ahamiyat kasb etadi. Taklif etilayotgan model turizm infratuzilmasi, raqamlashtirish darajasi, boshqaruv samaradorligi, institutsional hamkorlik va investitsion faollik kabi omillarni integratsiyalashgan holda baholash imkonini beradi.

Maqolaning maqsadi mintaqaviy turizmni innovatsion va institutsional mexanizmlar samaradorligini aniqlash hamda ularni baholashning kompleks modelini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Natijalar hududlarda turizmni strategik rejalashtirish, boshqaruv samaradorligini oshirish va barqaror turizm rivojlanishini ta‘minlashga xizmat qiladi.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqaviy turizmni rivojlantirishda innovatsion va institutsional mexanizmlarning o‘rni hamda ularning samaradorligini baholash masalalari xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. D. Buhalis turizmni axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining qo‘llanilishi turistik xizmatlar sifati va raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili ekanligini asoslab bergan. Unga ko‘ra, raqamli innovatsiyalar turistik mahsulotlarni boshqarish va iste‘molchilarga yetkazish jarayonlarini sezilarli darajada takomillashtiradi [1]. U. Gretzel, M. Sigala va Z. Xianglarning ilmiy izlanishlarida smart-turizm konsepsiyasi, raqamli platformalar va innovatsion texnologiyalarning turizm rivojlanishiga ta‘siri tahlil qilingan. Tadqiqotchilar turizmni boshqarishda innovatsion yondashuvlar qo‘llanilishi turistlar oqimini oshirish, xizmatlar sifati va hududlarning turistik jozibadorligini kuchaytirishini ta‘kidlaydilar [2],[3], [4]. Institutsional iqtisodiyot nazariyasining asoschilari D. North, J. Stiglitz va J. Tirole tadqiqotlarida iqtisodiy rivojlanishda institutlarning ahamiyati yoritilgan. Ularning fikricha, samarali institutlar iqtisodiy subyektlar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi, tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi hamda barqaror rivojlanish uchun qulay sharoit yaratadi [5],[6],[7]. Ushbu yondashuvlar turizm sohasida ham davlat, biznes va mahalliy hamjamiyatlar

oʻrtasidagi hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini koʻrsatadi. Mahalliy olimlardan I.S. Tuxliyev, M.Q. Pardayev, R. Hayitboyev va B.Sh. Safarovlarning ilmiy ishlarida Oʻzbekistonda turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari, turistik xizmatlar bozorini boshqarish va hududiy turizm salohiyatidan samarali foydalanish masalalari tadqiq etilgan [8],[9],[10]. Mazkur tadqiqotlarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish, investitsiyalarni jalb etish va xizmatlar sifatini oshirishning nazariy-uslubiy jihatlari yoritilgan.

## **METODOLOGIYA**

Tadqiqotda mintaqaviy turizmدا innovatsion va institutsional mexanizmlar samaradorligini baholash maqsadida tizimli yondashuv, qiyosiy va statistik tahlil, ekspert baholash hamda integral indekslash usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida turizm infratuzilmasi, raqamlashtirish darajasi, investitsion faollik, davlat-xususiy sheriklik va boshqaruv samaradorligini ifodalovchi koʻrsatkichlar tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida innovatsion va institutsional omillarning mintaqaviy turizm rivojlanishiga taʼsiri kompleks baholandi. Tadqiqotning axborot bazasini mahalliy va xalqaro statistik maʼlumotlar hamda ilmiy adabiyotlar tashkil etdi

## **TAHLIL VA NATIJALAR**

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida turizm sohasi hududlarning raqobatbardoshligini oshirish, aholi bandligini taʼminlash, investitsiyalarni jalb qilish va xizmatlar sektorining ulushini kengaytirishda muhim omillardan biri sifatida namoyon boʻlmoqda. Jahon turizm bozorida yuz berayotgan transformatsion jarayonlar turizmni boshqarishning anʼanaviy usullaridan innovatsion va institutsional yondashuvlarga oʻtishni taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, mintaqaviy turizmni rivojlantirishda innovatsion va institutsional mexanizmlar samaradorligini baholash hamda ularning oʻzaro bogʻliqligini aniqlash dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot davomida amalga oshirilgan tahlillar shuni koʻrsatdiki, mintaqaviy turizmning rivojlanish darajasi hududlarda innovatsion faoliyatning shakllanishi va institutsional muhitning rivojlanganlik darajasiga bevosita bogʻliq hisoblanadi. Turizm xizmatlari bozorida raqamli texnologiyalar, elektron tijorat platformalari, onlayn bronlashtirish tizimlari, mobil ilovalar va sunʼiy intellekt elementlaridan foydalanish turistlarga xizmat koʻrsatish sifatini oshirish bilan bir qatorda turistik korxonalarining iqtisodiy samaradorligini ham kuchaytirmoqda. Natijada xizmatlar koʻrsatish jarayonlarida vaqt va xarajatlar qisqarib, turistlarning qoniqish darajasi ortmoqda. Bu esa hududlarning turistik jozibadorligini oshirib, ichki va tashqi turistlar oqimining koʻpayishiga xizmat qilmoqda.

Innovatsion mexanizmlarning samaradorligini tahlil qilish jarayonida raqamli transformatsiya turizm rivojlanishining asosiy drayverlaridan biri ekanligi aniqlandi. Xususan, smart-turizm konsepsiyasi asosida faoliyat yurituvchi hududlarda turistlarga axborot taqdim etish, transport-logistika xizmatlarini tashkil etish, mehmonxonalarni bronlashtirish va turistik marshrutlarni boshqarish jarayonlari ancha samarali yoʻlga qoʻyilgan. Raqamli texnologiyalar yordamida turistik mahsulotlarni targʻib qilish

imkoniyatlarining kengayishi marketing xarajatlarini qisqartirish bilan birga yangi bozor segmentlariga chiqish imkonini yaratmoqda. Shu sababli innovatsion faoliyatning rivojlanishi turizmning iqtisodiy samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Innovatsion rivojlanishning yuqori darajasi turistlar sonining o'sishi, xizmatlar hajmining kengayishi va turizm daromadlarining ortishi bilan bevosita bog'liqdir. Hududlarda raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasi oshgani sari turizm xizmatlarining sifati ham yaxshilanib boradi. Bu esa turistik korxonalarining raqobatbardoshligini kuchaytirib, ularning bozor ulushini kengaytirishga xizmat qiladi. Natijada hududiy iqtisodiyotning xizmatlar sektori yanada faollashib, yangi ish o'rinlari yaratiladi hamda mahalliy byudjet daromadlari oshadi.

Turizmni rivojlantirishda innovatsion omillar bilan bir qatorda institutsional mexanizmlarning ham muhim o'rni mavjud. Tadqiqot natijalariga ko'ra, samarali institutsional muhit turizm subyektlari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, investitsiya jarayonlarini rag'batlantirish va boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining qo'llanilishi turizm infratuzilmasini rivojlantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Mehmonxonalar, transport tarmoqlari, madaniy meros obyektlari va rekreatsion hududlarni rivojlantirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi investitsion faollikning oshishiga olib kelmoqda.

Institutsional rivojlanish darajasini baholash natijalari hududlarda boshqaruv sifati, normativ-huquqiy baza, turizmni qo'llab-quvvatlash dasturlari va institutsional hamkorlikning mavjudligi turizm rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Xususan, turizmni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etgan hududlarda turistlar oqimi va turizm daromadlari boshqa hududlarga nisbatan yuqoriroq bo'lishi kuzatildi. Bu holat institutsional omillarning turizm rivojlanishidagi ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Innovatsion va institutsional omillar bir-birini to'ldiruvchi hamda o'zaro bog'liq elementlar hisoblanadi. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish uchun qulay institutsional muhit zarur bo'lsa, institutsional mexanizmlarning samarali ishlashi innovatsion faoliyatning rivojlanishiga turtki beradi. Shu sababli turizmni rivojlantirishda ushbu ikki omilni alohida emas, balki integratsiyalashgan tizim sifatida baholash maqsadga muvofiqdir. Mazkur yondashuv asosida innovatsion va institutsional mexanizmlar samaradorligini baholashning kompleks modeli ishlab chiqildi.

Taklif etilgan kompleks model innovatsion rivojlanish indeksi va institutsional rivojlanish indeksini yagona tizimga birlashtirish orqali hududlarning turizm salohiyatini kompleks baholash imkonini beradi. Modelda turizm infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi, raqamlashtirish ko'lamini, investitsion faollik, boshqaruv samaradorligi, xizmatlar sifati va hamkorlik darajasi kabi ko'rsatkichlar hisobga olindi. Mazkur yondashuv turizm rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni tizimli ravishda tahlil qilish va ularning o'zaro bog'liqligini aniqlash imkonini yaratdi.

Kompleks model natijalari hududlar o'rtasida turizm rivojlanish darajasi bo'yicha sezilarli tafovutlar mavjudligini ko'rsatdi. Turizm infratuzilmasi rivojlangan, innovatsion texnologiyalar keng joriy etilgan va institutsional hamkorlik samarali yo'lga qo'yilgan hududlarda kompleks indeks qiymati yuqori ekanligi aniqlandi. Aksincha, infratuzilma yetarli darajada rivojlanmagan, investitsion faollik past va raqamlashtirish darajasi sust bo'lgan hududlarda indeks ko'rsatkichlari nisbatan past natijalarni qayd etdi. Bu esa hududlar kesimida differensial rivojlanish siyosatini amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi.

**1-jadval**

**Mintaqaviy turizmda innovatsion va institutsional mexanizmlar samaradorligini baholash ko'rsatkichlari<sup>1</sup>**

Ko'rsatkichlar	Baholash mezonlari	Ta'sir darajasi
Raqamli texnologiyalarni joriy etish	Onlayn xizmatlar ulushi	Yuqori
Turizm infratuzilmasining rivojlanganligi	Mehmonxona, transport va servis obyektlari soni	Yuqori
Investitsion faollik	Turizmga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi	O'rta-Yuqori
Davlat-xususiy sheriklik (PPP)	Hamkorlik loyihalari soni	Yuqori
Institutsional hamkorlik	Davlat, biznes va jamoatchilik integratsiyasi	Yuqori
Xizmatlar sifati	Turistlar qoniqish darajasi	Yuqori
Marketing va brending	Hududning turistik tanilganlik darajasi	O'rta
Boshqaruv samaradorligi	Qarorlar qabul qilish va ijro intizomi	Yuqori

Tahlil natijalari asosida turizm rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari ham belgilab olindi. Jumladan, raqamli turizm platformalarini keng joriy etish, turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalarni ko'paytirish va hududiy turizm klasterlarini rivojlantirish muhim vazifalar sifatida e'tirof etildi. Shuningdek, turizm sohasida innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan institutsional mexanizmlarni takomillashtirish zarurligi asoslab berildi.

Olingan natijalar innovatsion va institutsional mexanizmlarning mintaqaviy turizm rivojlanishiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalarni keng qo'llash va samarali boshqaruv institutlarini shakllantirish turizm xizmatlari sifatini oshirish, turistlar oqimini ko'paytirish hamda hududlarning investitsion jozibadorligini kuchaytirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ishlab chiqilgan kompleks model turizm rivojlanishini baholashning mavjud usullariga nisbatan kengroq tahliliy imkoniyatlarga ega bo'lib, hududlarning turistik salohiyatini aniqlash va strategik qarorlar qabul qilish uchun samarali vosita sifatida namoyon bo'ldi.

Tadqiqot natijalari mintaqaviy turizmni rivojlantirishda innovatsion va institutsional mexanizmlarni uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatdi. Turizmni boshqarishda raqamli texnologiyalar, zamonaviy boshqaruv usullari va samarali

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

institutsional hamkorlikdan foydalanish hududlarning turistik raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiy o'sishni jadallashtirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi. Shu sababli kelgusida mintaqaviy turizm siyosatini ishlab chiqishda innovatsion va institutsional omillarni kompleks baholashga asoslangan yondashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

O'tkazilgan tadqiqot mintaqaviy turizmni rivojlantirishda innovatsion va institutsional mexanizmlar o'zaro bog'liq hamda bir-birini to'ldiruvchi omillar ekanligini ko'rsatdi. Tahlil natijalari raqamli texnologiyalarni joriy etish, turizm infratuzilmasini rivojlantirish, investitsion faollikni oshirish va institutsional hamkorlikni kuchaytirish hududlarning turistik jozibadorligi hamda raqobatbardoshligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Innovatsion va institutsional ko'rsatkichlarni yagona tizim asosida baholash mintaqaviy turizm rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan kompleks baholash modeli turizm infratuzilmasi, raqamlashtirish darajasi, boshqaruv samaradorligi, investitsion faollik va hamkorlik mexanizmlarining hududiy turizm rivojlanishiga ta'sirini tizimli baholash imkonini yaratdi. Model natijalari turizm salohiyati yuqori bo'lgan hududlarda innovatsion texnologiyalar va samarali boshqaruv institutlari turizm xizmatlari sifati hamda turistlar oqimini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilayotganini ko'rsatdi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, mintaqalarda smart-turizm texnologiyalarini keng joriy etish, yagona raqamli turizm platformalarini rivojlantirish va turistik xizmatlarni raqamlashtirish darajasini oshirish maqsadga muvofiqdir. Turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, transport va servis xizmatlari sifatini yaxshilash hamda hududiy turizm klasterlarini rivojlantirish turistik oqimlar barqaror o'sishini ta'minlaydi.

Davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalarni kengaytirish, mahalliy boshqaruv organlari, biznes subyektlari va jamoatchilik o'rtasidagi institutsional hamkorlikni mustahkamlash zarur. Turizm sohasida investitsion muhitni yanada yaxshilash va innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash hududlarning investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Innovatsion rivojlanish va samarali institutsional boshqaruvning uyg'unlashuvi mintaqaviy turizmning barqaror o'sishini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Ushbu yo'nalishlarda amalga oshiriladigan izchil chora-tadbirlar turizm xizmatlari sifatini oshirish, hududlarning raqobatbardoshligini mustahkamlash, yangi ish o'rinlarini yaratish va mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirishga xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

10. North D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. - Cambridge: Cambridge University Press, 1990. - 152 p.

11. Stiglitz J.E. Economics of the Public Sector. - 3rd ed. - New York: W.W. Norton & Company, 2000. - 823 p.
12. Tirole J. The Theory of Corporate Finance. - Princeton: Princeton University Press, 2006. - 658 p.
13. Buhalis D. Law R. Progress in information technology and tourism management: 20 years on and 10 years after the Internet // Tourism Management. - 2008. - Vol. 29, No. 4. - P. 609-623.
14. Gretzel U., Sigala M., Xiang Z., Koo C. Smart tourism: Foundations and developments // Electronic Markets. - 2015. - Vol. 25, No. 3. - P. 179-188.
15. Sigala M. New technologies in tourism: From multi-disciplinary to anti-disciplinary advances and trajectories // Tourism Management Perspectives. - 2018. - Vol. 25. - P. 151-155.
16. Xiang Z., Wober K., Fesenmaier D.R. Representation of the online tourism domain in search engines // Journal of Travel Research. - 2008. - Vol. 47, No. 2. - P. 137-150.
17. Tuxliyev I.S. Turizm asoslari. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2014. - 384 b.
18. Pardayev M.Q. Turizm iqtisodiyoti. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2018. - 312 b.
19. Hayitboyev R., Safarov B.Sh. Turizm: nazariya va amaliyot. - Toshkent: Tafakkur, 2020. - 286 b.
20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-may PF-87-son “2025-2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko‘paytirish va turistik xizmatlar ko‘lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-7531559>
21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>



# Marketing

*ilmiy, amaliy va ommabop jurnali*

**Muharrir:**

**Ingliz tili muharriri:**

**Rus tili muharriri:**

**Musahhih:**

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2026-yil, iyun, 6-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**